

QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI O‘ZBEK SHEVALARI: TAOM NOMLARINING LEKSIK TAHLILI

M.T.Xudayarova,

Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek tili kafedrası dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18168605>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili leksik tarkibining shakllanishi va undagi qatlamlararo munosabatlar tahlil qilinadi. Adabiy til leksikasi bilan bir qatorda umumxalq tili, dialekt va shevalarga mansub leksik birliklarning ham umumiy leksik tizim tarkibida tutgan o‘rni asoslanadi. Shuningdek, o‘zbek xalqining qadimgi turkiy ildizlari bilan bog‘liq holda dialekt va shevalarda uchraydigan umumiy til hodisalari, variantlilik va o‘xshashliklar ilmiy nuqtayi nazardan sharhlanadi. Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek shevalarida uchraydigan taom nomlari misolida dialektal leksikaning adabiy tilni boyitishdagi ahamiyati yoritiladi hamda bu hodisalarning etnolingvistik jihatdan muhim manba ekani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili leksik tarkibi, adabiy til, umumxalq tili, dialekt va shevalar, leksik tizim, variantlilik, etnolingvistika, taom nomlari, Qoraqalpog‘iston shevalari.

Аннотация. В статье анализируется формирование лексического состава узбекского языка и межслоевые отношения в его системе. Наряду с лексикой литературного языка обосновывается место лексических единиц, относящихся к общенародному языку, диалектам и говорам, в составе общей лексической системы. Также с учётом древнетюркских корней узбекского народа с научной точки зрения рассматриваются общие языковые явления, вариантность и сходства, встречающиеся в диалектах и говорах. На примере названий блюд, употребляемых в узбекских говорах на территории Каракалпакстана, раскрывается значение диалектной лексики в обогащении литературного языка и показывается, что данные явления являются важным источником с этнолингвистической точки зрения.

Ключевые слова: лексический состав узбекского языка, литературный язык, общенародный язык, диалекты и говоры, лексическая система, вариантность, этнолингвистика, названия блюд, говоры Каракалпакстана.

Abstract. This article analyzes the formation of the lexical structure of the Uzbek language and the interrelations between its lexical layers. Alongside the vocabulary of the literary language, the role of lexical units belonging to the national language, dialects, and local varieties within the overall lexical system is substantiated. Furthermore, in connection with the ancient Turkic roots of the Uzbek people, common linguistic phenomena, variability, and similarities found in dialects and vernaculars are examined from a scientific perspective. Using the names of traditional dishes found in Uzbek dialects of the Karakalpakstan region as examples, the importance of dialectal vocabulary in enriching the literary language is highlighted, and these phenomena are shown to be a significant source from an ethnolinguistic standpoint.

Keywords: lexical structure of the Uzbek language, literary language, national language, dialects and vernaculars, lexical system, variability, ethnolinguistics, food names, Karakalpakstan dialects.

Kirish va dolzarbligi. Ma‘lumki, har bir tilning leksik tizimi ushbu tilda mavjud bo‘lgan barcha leksik birliklar, turg‘un birikmalar, frazeologizmlar hamda leksikalizatsiyalashgan til elementlarini o‘z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda esa “tilning leksik tarkibi” tushunchasi ko‘p hollarda faqat adabiy til doirasida mavjud bo‘lgan leksik vositalar bilan bog‘lab izohlanadi. Aslida esa tilning umumiy leksik tizimiga nafaqat adabiy tilga xos leksema va birikmalar, balki umumxalq tili, dialekt va shevalarga tegishli bo‘lgan

leksik birliklar ham kiradi. Shuningdek, nominativ vazifani bajaradigan turg'un birikmalar, leksikalizatsiya jarayonini boshdan kechirgan til elementlari va ayrim frazeologizmlar ham umumiy leksik tarkibning muhim qismini tashkil etadi. Chunki adabiy tilning barqarorligi va boyib borishi, tilning ichki tizim sifatida takomillashishi, ayni paytda zarur leksik vositalarning shakllanishi va me'yorlashuvi, avvalo, umumxalq tili hamda dialekt-sheva materiallari hisobidan ta'minlanadi.

O'zbek tilining leksik tarkibi ham faqat adabiy tilga oid leksik-semantik birliklar bilan cheklanib qolmaydi. U umumxalq o'zbek tili, turli hududlardagi dialekt va shevalarda saqlanib kelayotgan ko'p qirrali leksik vositalarni ham qamrab oladi. Adabiy til va dialekt-sheva leksik qatlamlari doimiy o'zaro aloqa va ta'sirda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi, umumiy til tizimining rivojlanishi va zamon talablariga moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, umumxalq tilidagi barcha hududiy, sohaviy va tarmoqlar leksikasi adabiy til taraqqiyoti, shuningdek tilshunoslik fani uchun qimmatli manba vazifasini bajaradi. Qoraqalpog'iston hududidagi o'zbek shevalarida uchraydigan taom nomlari va ularning qardosh xalqlar tillaridagi muvofiqliklari ham ushbu jarayonning diqqatga sazovor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu materiallarda aks etgan leksik xususiyatlar adabiy tildan farqli jihatlarni ko'rsatib berishi bilan birga, o'zbek tilining umumiy leksik tarkibini kengroq va chuqurroq o'rganish imkonini yaratadi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Ilmiy adabiyotlarda o'zbek adabiy tilining asosiy dialekt tayanchi sifatida, odatda, Toshkent va Farg'ona dialektlari e'tirof etiladi. Shu bilan birga, o'zbek xalqi tarixi va etnik ildizlari nuqtayi nazaridan qaralganda, uning til asoslari qadimgi turkiy tillar zamiriga borib taqalishi alohida ta'kidlanishi lozim.

Bu holat o'zbek tili dialekt va shevalaridagi leksik tizimlar tahlilida ham yaqqol ko'zga tashlanadi: dialektlar o'rtasida ayrim farqlar mavjud bo'lsa-da, umumiy til hodisalari, mushtarak leksik birliklar va o'xshash semantik tuzilmalarning ko'pligi kuzatiladi. Atamalarda variantlilik mavjud bo'lishi mumkin, ammo ular asosan bitta umumiy til manbaiga tayanadi.

O'zbek xalqi qaysi hududda istiqomat qilishi yoki qaysi xalqlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lishidan qat'i nazar, uning etnik negizi yagona xalq sifatida shakllangan. Shu bois bu xalqning etnolingvistik xususiyatlarida umumiy, mushtarak til hodisalari saqlanib qolgan va dialekt-sheva materiallarida o'z ifodasini topgan.

Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarini o'rgangan A.Ishayev [6], E.O'rozov [12], Y.Ibrohimovlarning [5] ishlarida ham ayrim taom nomlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot natijalari. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida uchrovchi ayrim taom nomlari adabiy tilda qanday bo'lsa, o'rganilayotgan hudud aholisi tilida ham aynan shunday qo'llaniladi. Farqi shundaki, ayrim taom nomlari ba'zi fonetik farqlarga ega bo'lishi mumkinki, bu ularni asosiy o'zakdan, tub so'zdan uzoqlashtira olmaydi. Jumladan, quyidagi

taom nomlari o'zbek adabiy tilida va o'rganilayotgan hudud o'zbeklari shevasida bir xil shaklda uchraydi. Bularga taom nomlarini bildiruvchi: *palav, shävlä, shorpa* kabi; non mahsulotlari nomlarini bildiruvchi: *pätir, zag'ara, chälpäk* kabi; sut mahsulotlari nomlarini bildiruvchi: *qatiq, qimiz, qaymaq* kabi; go'shtdan tayyorlanadigan: *qazi, kabap, shashlik* kabi taom nomlarini bildiruvchi tub so'zlarni, shuningdek, har xil yo'llar bilan yasalgan *chalap, mäshävä, mäshpalav, qatlama, quymaq, quvirdaq, pyazli qatlama, kök somsa* kabi murakkab shakldagi, ya'ni turg'un holga kelib qolgan birikmali taom nomlarini ko'rsatish mumkin. Ular adabiy tilda qanday shaklga ega bo'lsa, hudud aholisi tilida ham shunday shaklga egadir. Bu hol bir tomondan, adabiy tilda me'yorlashtirilgan leksik birliklarning umumxalq o'zbek tiliga xosligini isbotlasi, ikkinchidan, o'zbek xalqining etnik jipsligini, yaxlit bir xalq sifatida bir xil turmush tarziga ega ekanligini ko'rsatib turadi. Bu esa adabiy til bilan dialektlar tili o'rtasida mushtarak taom nomlari mavjudligini va bu ularning ancha katta qatlamni tashkil qilishidan darak beradi.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida dialektal xususiyatga ega bo'lgan taom nomlari anchagina. Shunday taom nomlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *chöräk, chäkiydä, pütiraq, yoryän, qansoqta, kürtik, häy-häy, chüykildävik, vag'lama, chibat//chubat//shubat, üzmän, chalg'i, ovmach, quyman, salma, töshäp, qao'shirma* kabi. Bu taom nomlarining ayrimlari tub so'zlar bo'lsa, ularning boshqa birlari yasama ot negizlardir. Ular turli yo'llar va har xil qo'shimchalar vositasida yasalgan taom nomlaridir. Bularga: *üzmän, ovmach, quyman, salma* kabilar taalluqlidir. Shuni ham qayd qilish kerakki, bu taom nomlari adabiy til doirasida uchramaydi va ular turkiy so'zlardan iborat dialektlardir. Masalan, *vag'lama, chubat, chang'alaq bäräk* kabi taom nomlari turli yo'llar bilan hosil qilingan va ularning shunday nomlanishiga har xil ekstralingvistik omillar asos bo'lganki, ularni faqat dialektal xususiyati, hudud aholisining hayot tarzi bilan tushuntirish mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan so'zlarning shunday atalishiga har xil hayotiy tajribalar asos bo'lganki, ularni bir xil yo'l bilan izohlash ancha qiyin. Masalan, *chäkiydä, vag'lama* taom nomlarining atalishiga tovushga taqlid timsoli asos bo'lgan bo'lsa, *chang'alaq bäräk, g'ovacha bäräk* taom nomlariga ko'rinish belgisi, tasviri asos bo'lgan, *kürtik, chubat* nomlarining shunday atalishini birorta hayotiy asos yoki etimologik tahlil bilan tushuntirish ancha qiyin.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida asosan umumturkiy qatlamga xos bo'lgan taom nomlari va taom tayyorlash jarayoni bilan bog'liq nomlar qo'llaniladi. Xususan, *dog'rama//tuvrama, süzmä* (Ellikqal'a, To'rtko'l, Beruniy), *achig'an gödjä, baliq qarma, djayman, turaq* (Mang'it, Xo'jayli, Qo'ng'iro't), *quyman* kabi taom nomlarining qo'llanilishida ham ko'zga tashlanadi.

O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalaridagi umumturkiy qatlamga xos bo'lgan *qariq* (qorishtirish, aralashtirish uchun mo'ljallangan bug'doy uni) so'zi na adabiy tilda, na tayanch dialektlarda uchraydi. Uning qo'llanilishi Xorazm vohasi aholisi turmush tarzi bilan bog'liq. Uni bu voha aholisining yosh avlod vakillari ham unchalik tushunavermaydi. Chunki

Xorazm va Qoraqalpog‘iston aholisi don ekinlaridan oq jo‘xorini ko‘p ekishgan va bug‘doy taqchil vaqtlarida ko‘proq oq jo‘xori unidan qilingan nonni (*zag‘ara*) iste‘mol qilishgan. Faqat birgina jo‘xori uni xamir qilinganda yakka o‘zi xamir holiga kelishi, birikishi ancha mushkul. Shu sababdan ozgina bug‘doy uni aralashtiriladi va jo‘xori uni bug‘doy uni yordamida mustahkam qoriladi, xamir holiga keltiriladi. Bunday aralashtirish uchun mo‘ljallangan bug‘doy uni *qariq* deyiladi. Bu so‘z “Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya” asarida ham uchraydi [1:67].

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “*yosh*” so‘zi sabzavotni bildirib, ko‘k, bara, g‘o‘ra ma‘nolarida qo‘llangan [7:175]. Umuman, bu so‘z xom, pishmagan ma‘nolarida qoraqalpoq tilida uchraydi. Masalan, *qawin jas eken – qovun etilmagan ekan; sorpaning eti eli jas – sho‘rvaning go‘shiti hali pishmagan. Jas* so‘zi mevalarning xomligini va ovqatlarning pishmaganligini bildirish uchun ishlatiladi. O‘rganilayotgan hudud o‘zbeklari shevasida *jas//xom* ikkala so‘z ham qo‘llaniladi. *Xom* so‘zi esa fors-tojikcha bo‘lib, aholi tiliga keyingi davrlarda o‘zlashganligi ehtimoldan yiroq emas.

“Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya” asarida *qasmaq* [1:96] so‘zi uchraydi. Bu so‘z “*qas*” otidan kelib chiqib, “*teri*”, “*po‘stloq*” ma‘nolarini bildiradi: *qas+ma=qasma+q=qasmaq* [9:530]. Dialektida bu so‘z qozonning tagiga qotib qolgan ovqatning yuqi (qoldig‘i)ni bildiradi. Adabiy tilda *qirmoch* deb ataladi.

O‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalarida “*somsa*” va “*gömmä*” taom nomlari hozirgi kunda parallel ravishda qo‘llaniladi. Ammo “*somsa*” taom nomi nisbatan keyingi davrlarga xos. «*Somsa*» Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalariga adabiy til ta‘sirida kirib o‘zlashgan va keyingi davrlardagina faol qo‘llanayotgan taom nomlaridan biridir. O‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalarida bu taom nomi o‘rnida “*gömmä*” nomi keng ishlatiladi. Bu taom nomi Xorazm o‘zbek shevalarida ham faol qo‘llanadi. “*Gömmä*” asli turkiy so‘z bo‘lib, bu taom kulning qo‘riga ko‘mib pishirilgan va tayyorlash usuliga ko‘ra *kömmä>gömmä* shaklida qo‘llanilgan. *Somsa* tojikcha so‘z bo‘lib, “*sanbo‘sa*” so‘zidan olingan [10:339]. Bu so‘z adabiy tilga me‘yoriy shakl sifatida qarluq shevalari ta‘sirida kirib o‘zlashgan va bu o‘sha shevalarga tojik tilining ta‘siri ko‘p ekanligini yorqin ko‘rsatib turadi.

Birikma tipidagi taom nomlarida ham turkiy til elementlari ustunlik qiladi. Birikma tipidagi taom nomlari deb olinishida ham nominatsiya nazariyasiga asoslanadi [11:129-221;13:5-85]. Chunki nominatsiya nazariyasiga ko‘ra nom qo‘yish yoki nomlanish jarayoni birlamchi yoki ikkilamchi bosqichlar asosida yuz beradi. Birlamchi bosqichda yoki dastlabki nom qo‘yishda so‘zning tub o‘zagi o‘sha hodisaning (bizda taom nomlarining) asosiy va yakka-yu yagona nomi bo‘lib maydonga chiqadi. Bunga *ash, nan, tösh, kürtik* kabi o‘zak so‘zlar kiradi. Ular bevosita o‘sha taomlarning nomini bildiruvchi so‘zlardir. Ikkilamchi atalishda esa so‘zlar yasalishi natijasida qo‘shma so‘zlarga, so‘z birikmalariga birlashishi, gap holiga kelishi natijasida yaxlit holda biror narsaning nomi bo‘lish vazifasini o‘taydi. Bularni hosila yoki ikkilamchi nomlanish deyish mumkin. Bunday tarkibli birikmalarni

ba'zilar qo'shma terminlar [2:169; 8:137], boshqa birlari leksikalizatsiyalashgan so'z birikmalari [3:103], turg'un so'z birikmalari [4:30] kabi nomlar bilan ataydilar. Bunday ilmiy tushunchalar ilmiy uslub doirasida nihoyatda ko'p qatlamni tashkil qiladi va ularning tuzilishi, tarkibi ham rang-barangdir. Bunday turg'un birikma nomini olgan murakkab qo'shma terminlar erkin birikmalar bilan frazeologizmlar oralig'ida turuvchi turg'un birikmalardir. Chunki ular tarkibidagi komponentlarni almashtirish mumkin, birikmaning umumiy ma'nosi birikma tarkibiga kirgan so'zlarning ma'nolaridan iborat bo'ladi. Bunday birikmali taom nomlariga *yerikli palav, sariyag'li palav, pyazli nan, baliq qarma, djüvari kürtik, baliq shorpa* kabilarni kiritish mumkin. V.V.Vinogradov bunday turg'un birikmalarni "frazeologik birikmalarning erkin ekvivalentlari (xillari)" [14:42] deb nomlaydi va ular erkin birikmalar bilan frazeologik birikmalar oralig'idagi alohida tip birikmalar ekanligini ta'kidlaydi. Qoraqalpog'iston o'zbeklar shevasidan to'plangan materiallar tizimida ham bunday birikma tipidagi taom nomlari anchagina. Masalan, *uviz bäräk, kädi manti//qavaq manti, salma kürtik, mäydä kürtik, zamariq somsa, qavaq qirmich, nan shorpa, kädi yarma, gashir m'rabbo, qarmizli töshäp* kabi.

Taom nomini bildiruvchi turg'un birikmalar biz to'plagan misollarda faqat o'z ma'nosida qo'llaniladi. Bu birikmalarning birinchi komponenti doim tur yoki xil tushunchasini ifoda qiladi. Ikkinchi komponent esa jins tushunchasini bildiradi. Masalan, *buvday yarma, djüvari yarma, süzmä palav, qarın palav* kabi birikmali taom nomlarida bu o'z tasdig'ini topadi. Demak, dialektda qo'llaniladigan taom nomini bildiruvchi turg'un birikmalarning ma'nosi tarkibiga kirgan komponentlarning umumiy ma'nolaridan chiqadi yoki shularga bog'liq bo'ladi. Faqat ba'zi qo'shma terminlarda sinekdoxa hodisasiga yaqin ma'nolar ifoda qilinadi. Masalan, *pyazli qatlama, kök pätir* birikmalarida o'sha taomlarning birinchi komponenti bildirilgan narsadan qilingani emas, balki o'sha narsadan tayyorlanadigan taomga ozgina qo'shilganidan darak beradi.

Taom nomlarini bildiruvchi turg'un birikmalarda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik kuzatilmaydi. Ularning barchasida erkin birikmalarga yaqinlilik, xil va jins tushunchasini ifodalashga ixtisoslashish holati ko'zga tashlanadi. Bu birikmalarning turg'un yoki qo'shma so'z ekanligi taom nomlarini bildiruvchi til vositalari tizimidagina seziladi va qabul qilinadi.

Xulosa. O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalaridagi taom nomlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu nomlar adabiy til elementlari yordamida ham, umumxalq tili va dialektal til birikmalari ishtirokida ham tuzilishi mumkin. Shu ma'noda ular o'zbek tilining barcha sohalari ishtirokida maydonga keladi va o'zbek tilining turli jabhalari tarmoqlar bilan aloqasi yaqqol sezilib turadi.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'zbek adabiy tili, o'zbek umumxalq tili doirasidagi o'rni va mavqeini aniqlash, uning adabiy tildagi variantlariga munosabati yoki faqat dialektal variantlarini tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyat

kasb etadiki, u leksikologiya, frazeologiya, til tarixining ko'pgina masalalarini yechish imkonini tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 67.
2. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – М.: 1957. – С. 169.
3. Галина – Федорук Е.М., Горшкова К.В., Шанский Н.М. Современный русский язык. – М.: 1962. – С. 103.
4. Гепнер Ю.Р. Фразеология в системе русского литературного языка // Вопросы фразеологии. – Ташкент, 1965. – С. 30.
5. Ибрагимов Ю. Лексика узбекских говоров Приаралья. – Нукус: Билим, 1996. – 156 с.
6. Ишаев А. Фонетические особенности мангытского говора узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1962. – 26 с.
7. Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3 томлик. – Тошкент, 1961. Т. II. – Б. 175.
8. Никитевич В.М. О лексико-грамматической структура несвободных определительных сочетаний в современном русском языке // Вопросы фразеологии. Труды СамГУ, вып. – №106. – Самарканд, 1961. – С. 137.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 530.
10. Таджикиско-русский словарь. – М., 1954. – С. 339.
11. Телия В.Н. Вторичная номинация и её виды // Языковая номинация, виды наименований. – М., 1977. – С. -129-221.
12. Уразов Э. Узбекские говоры Южной Каракалпакии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – 21 с.
13. Уфимцева А.А. Лексическая номинация (первичная, нейтральная) // Языковая номинация, виды наименований. – М., 1977. – С. -5-85.
14. Виноградов В.В. Идеалистические основы синтаксической системы А.М. Пешковского // Вопросы синтаксиса русского языка. – М., 1950. – С. 42.